

**SO'Z KO'CHISHI EMAS, RUH KO'CHISHI: ISROIL SUBHONIY
TARJIMALARIDA BADIY-FALSAFIY YAXLITLIK**

Qurbonova Dilafro'z

BuxDU 2-kurs magistiri

Adabiy tarjima bu ikki madaniyat o'rtasidagi ko'prik bo'libgina qolmay, tarjimon ijodkorning o'z badiiy dunyoqarashini, estetik sezgiriligini va til imkoniyatlarini sinab ko'radigan eng murakkab ijodiy maydonlardan biridir. Isroil Subhoniylar esa aynan shu maydonda o'zining alohida qirralarini namoyon etgan shoir-tarjimon sifatida o'zbek adabiyotida muno—sib o'rin egallaydi. Uning tarjimonlik faoliyati tasodifiy yoki ikkinchi darajali mashg'ulot bo'lmay, balki shoirning badiiy kamolot yo'lida tabiiy tarzda shakllanib, o'z ijodi bilan chambarchas qorishib ketgan mustaqil ijodiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ldi. Subhoniylarning tarjimonlik faoliyati, avvalo, uning Sharq mumtoz adabiyotiga chuqur ixlosi va ularni o'zbek kitobxoniga yangicha tarzda yetkazish istagi bilan boshlanadi. Shoir fors-tojik klassik she'riyatining ulkan namoyandalari — Badriddin Hiloliy, Mirzo Bedil, Umar Xayyom, Xoja Orif Revqariy asarlarini o'zbek tiliga o'girish jarayonida faqat so'zma-so'z muqobilini izlamay, asarning ruhini, ohangini va ichki falsafasini saqlab qolishga intildi. Bu yondashuv tarjima nazariyasida “ijodiy tarjima” deb ataladigan usulga to'liq mos keladi. Ya'ni tarjimon asl nusxaga tobe' bo'lmay, balki uning badiiy qadriyatlarini yangi til muhitida qayta jonlantiruvchi ijodkorga aylanadi.

Rus she'riyatidan amalga oshirilgan tarjimalar esa Subhoniylar faoliyatining ikkinchi muhim qatlamini tashkil etadi. Pushkin, Lermontov va Blok she'rlarini o'zbek tiliga o'girish jarayonida shoir G'arb va Sharq poetikasining kesishish nuqtalarini izladi. Bu ikki an'ananing ijodiy sintezi uning tarjimonlik uslubiga yangi bir kenglik bag'ishladi. U bir tomondan klassik Sharq estetikasiga sodiq qolgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Yevropa she'riyatining erkin ritmik qurilishlari va psixologik teranligidan ijodiy bahramand bo'ldi. Subhoniylarning tarjimonlik ahamiyatini baholashda shuni alohida ta'kidlash lozimki, u o'zbek adabiyotida ikki madaniyat o'rtasida ko'prik vazifasini bajarish bilan birga, tarjimoni mustaqil badiiy asar darajasiga ko'targan ijodkorlar avlodiga mansubdir. Uning tarjimalari asl nusxaning soyasida qolmay, o'zbek adabiy jarayonining to'laqonli bir bo'lagiga aylandi va keyingi avlod tarjimonlari uchun uslubiy namuna sifatida xizmat qila boshladi. Bu esa Isroil Subhoniylarning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasini faqat she'riy ijod doirasida emas, balki adabiy-madaniy vositachilik va tarjima san'ati nuqtai nazaridan ham alohida e'tirof etishni taqozo etadi.

Isroil Subhoniylar tarjimonlik faoliyatida nafaqat falsafiy-tasavvufiy nasrni, balki mumtoz fors-tojik she'riyatining eng nozik va zarif janrlaridan biri — ruboiyni ham o'zbek adabiy tiliga singdirishga alohida e'tibor qaratgan. Uning “Ruboiylar gulshani”³¹

³¹ Ruboiylar gulshani (Umar Xayyom, Badriddin Hiloliy, Mirzo Bedil). Fors-tojik tilidan Isroil Subhoniylar tarjimasini. — Buxoro: “Durdona”, 2012. — 30 b.

to'plami ana shu ijodiy jarayonning yorqin samarasi sifatida Subhoniylar tarjimonlik merosida alohida o'rin tutadi. Tarjimon muqaddimaviy so'zida ruboiy janrining mohiyatini chuqur anglagan holda shunday ta'riflaydi: "ruboiy — aruzdagi hazaj bahri axram va axrab shajara-sidagina yaratiladigan, falsafiy-ma'rifiy, ishqiy, axloqiy va diniy mavzulardagi to'rt misra she'r bo'lib, uning bosh mezoni ixcham shaklda katta ijtimoiy-falsafiy umumlashmalarni ifodalay olishdir"³². Bu ta'rif Subhoniylarning tarjima tanlovi va uslubiy yo'nalishini belgilab bergan ruboiyni faqat shakl jihatidan emas, balki uning falsafiy qiymati va badiiy lazzatini saqlab o'girishga bel bog'laganini namoyon etadi. Subhoniylar Hiloliy ruboiylari tarjimasida ikki xil uslubiy yo'ldan foydalanadi. Birinchidan, asliyatga yuqori darajadagi yaqin tarjima bo'lib, bunda aruzdagi vazn me'yorlari imkon qadar saqlanishga harakat qilinadi. Ikkinchi yo'l esa tarjimon o'zi muqaddimada e'lon qilganidek, "bugungi o'zbek kitobxoniga tanish va qulay barmoq vaznida o'girish"³³ usulidir. Bu usulning tanlovi tasodifiy emas. O'zbek va tojik tillari til oilalari jihatidan butunlay boshqacha tabiatga ega bo'lgani, ya'ni ular orasida qarindoshlik aloqasi yo'qligi tufayli she'riy shaklni saqlamoq uchun mazmuni qurbon qilmaslik zaruriyati vujudga keladi. Subhoniylar esa tarjimaning bosh mezoni sifatida mazmun-mohiyatni to'liq va munosib tarzda yetkazishni qo'yadi. Ishqiy-lirik turkumdagi ruboiylarda Subhoniylar yor go'zalligini tasvirlashda klassik badiiy san'atlarni mohirona qo'llaydi. Masalan, quyidagi ruboiyda tashbeh va mubolag'a san'atlari birlashib, go'zallik tavsifida falsafiy bir chuqurlik hosil qiladi:

Bu pari paykarki, ta'rif-tavsifi bormi o'zi,
Lab-dahoni bir ajabdur, bir ajab ikki ko'zi.
Ikki zulfi orasinda oftob bo'lsa, ne tong
Ikki kecha orasinda bo'lmagaymu kunduzi?!³⁴

Bu misralarda Subhoniylar asliyat obrazini o'zbek she'riy tilining tabiatiga muvofiq holda shakllantiradi. "Ikki kecha orasinda bo'lmagaymu kunduzi?!"³⁵ degan savol-istifhom badiiy san'ati ma'lum bir haqiqatni isbotlanmas haqiqat sifatida taqdim etish Hiloliylarning asliyatidagi metaforik obrazni o'zbek she'riyatining ruhiga singdirib yuboradi. Tarjimon "pari paykar" iborasini saqlab, ma'naviy ko'p qatlamlilikni ta'minlaydi, ya'ni pari — ham go'zallik, ham insondan ustun bir qudrat ramzi sifatida tasvirlanadi.

Falsafiy-axloqiy ruboiylar. Subhoniylar tarjimasining eng kuchli tomoni aynan falsafiy-axloqiy qatlamda namoyon bo'ladi. Quyidagi ruboiy inson umri va dunyoning bevafoqligi haqidagi tasavvufiy fikrni ifodalaydi:

Hech kishi bu bevafo olamda shod-xurram emas,
G'am-alamdan mosuvo-yu, tinch-xotirjam emas.

³² O'sha asar. — B. 4.

³³ O'sha asar. — B. 4.

³⁴ Ruboiylar gulshani (Umar Xayyom, Badriddin Hiloliy, Mirzo Bedil). Fors-tojik tilidan Isroil Subhoniylar tarjimasida. — Buxoro: "Durdona", 2012. — 16 b.

³⁵ O'sha asar. — B. 16.

Ul kishikim, bu zamonda qayg'u chekmas, g'am yemas —
Yo bu olamdan emas yo ul bani odam emas.³⁶

Bu ruboiyda tarjimon tazod san'atidan mohirona foydalanadi: “shod-xurram” va “g'am-alam”, “tinch-xotirjam” va “qayg'u” so'zlari o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik falsafiy hukmga dramatik kuch bag'ishlaydi. Oxirgi misradagi “Yo bu olamdan emas yo ul bani odam emas” degan jumla takror va tazodning uyg'unligini namoyon etib, fikrni mantiqan zichlashtirib yakunlaydi. Subhoniyy bu o'rinda barmoq vaznining tartibli ritmini saqlagan holda fikrni qisqa, keskin va ta'sirli ifodalash xususiyatini to'liq aks ettiradi.

Badriddin Hiloliyning quyidagi ruboiysi falsafiy-hikmatli yo'nalishda bo'lib, Subhoniyy uni o'zbek she'riy tiliga nihoyatda mahorat bilan o'giran:

Ey, oqil, ertaning ishi havasdur,
Dunyodan lof urmoq bekor – abasdur.

Bugun kim o'zini dono atasa
Bilurki, dunyosi shu – bir nafasdur.³⁷

Ushbu ruboiyda Hiloliy hayotning o'tkinchiligi va dunyo lazzatlarining behudaligi haqidagi tasavvufiy g'oyani ifoda etgan. Subhoniyy mazkur ruboiyni tarjima qilar ekan, bir qator badiiy-uslubiy xususiyatlarni mohirona saqlay olgan va ayni paytda o'zbek she'riyatining ruhiga muvofiq yangi jihatlar qo'shgan. Avvalo, leksik-semantik mahorat nuqtai nazaridan e'tibor qaratisa, tarjimon “havasdur”, “abasdur”, “nafasdur” kabi so'zlarni qofiya sifatida qo'llagan holda asl matndagi radif tizimini saqlab qolgan. Bu esa tarjimaning nafaqat mazmuniy, balki musiqiy jihatdan ham asliga yaqin bo'lishini ta'minlagan. “Bir nafasdur” iborasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Tarjimon bu birikmada inson umrining qisqaligini nafas obrazi orqali ifodalab, o'quvchi tasavvurida hayotning lahzalik mohiyatini jonli va ta'sirli tarzda gavdalantirgan. Shuningdek, murojaat san'ati (nido) ning ustalik bilan qo'llanilgani ko'zga tashlanadi. “Ey, oqil” degan murojaat bilan boshlanadigan misra o'quvchini bevosita nutqqa jalb etadi va she'riy matn monologdan dialogga aylanadi. Subhoniyy bu usulni tarjimada to'liq saqlab, asl asardagi ta'sirchanlikni yo'qotmagan

Isroil Subhoniyy qilgan tarjimalardan biri bu Lao Szining “Dao De Szin” asaridir. Uning o'zbek tiliga o'girilishi shoir tarjimonlik faoliyatidagi alohida bir bosqichni belgilab berdi. Ushbu asar — xitoy falsafiy tafakkurining besh ming iyeroglifga sig'dirilgan, ammo mazmun-mohiyati jihatidan cheksiz qatlamlarga ega bo'lgan nodir asarlaridan biri. Subhoniyy bu tarjimini bevosita xitoy tilidan emas, 1950 - yilda Yan Xin Shun tomonidan amalga oshirilgan rus tilidagi matni asosida, shuningdek, Aleksandr Kuvshinov, Yuy Kan va Oleg Borushko kabi shoir-tarjimonlarning turli yillardagi she'riy versiyalaridan ijodiy bahramand bo'lib yaratgan. Tarjima amaliyotida bunday ko'p manbasifatli yondashuv matnning yagona talqinga bog'lanib qolmasligini ta'minlaydi va

³⁶ Ruboiylar gulshani (Umar Xayyom, Badriddin Hiloliy, Mirzo Bedil). Fors-tojik tilidan Isroil Subhoniyy tarjimasi. – Buxoro: “Durdona”, 2012. – 16 b.

³⁷ Ruboiylar gulshani (Umar Xayyom, Badriddin Hiloliy, Mirzo Bedil). Fors-tojik tilidan Isroil Subhoniyy tarjimasi. – Buxoro: “Durdona”, 2012. – 15 b.

tarjimonga yanada kengroq badiiy erkinlik maydonini ochib beradi. Mazkur tarjimaning uslubiy xususiyatlarini tahlil etganda, Subhoniyning matnga nisbatan tubdan o'zgacha yondashuvi yaqqol ko'zga tashlanadi. U Lao Szining mulohazalarini "amalsizlikni amalga oshirish", "nomlanishi mumkin bo'lgan nom barqaror nom emas" kabi ziddiyatli, tasavvuf falsafasiga tutashib ketuvchi tushunchalarni o'zbek tiliga o'girishda so'zma-so'z tenglik tamoyilini emas, balki mazmuniy-falsafiy moslik tamoyilini ustuvor tutgan. Buning eng yaqqol ifodasi tarjima matnidagi qavs ichidagi izohlar tizimida namoyon bo'ladi. Asl matnda mavhum qolgan ma'nolar qavs yordamida o'quvchiga tushuntirib beriladi, ya'ni tarjimon bir vaqtning o'zida ham muallif ovozini, ham sharhlovchi ovozini o'zida mujassam etadi. Bu ikki ovozning uyg'unligi tarjimachilik san'atining eng murakkab ko'rinishlaridan biri sifatida nazariy jihatdan alohida o'rganishga loyiq hodisadir.

Falsafiy terminologiyani yangi til muhitida sinovdan o'tkazish muammosi ham Subhoniyning tarjimonlik mahoratini alohida sinab ko'rdi. "Dao" va "Də" tushunchalarini o'zbek tilidagi so'z boyligi imkoniyatlari bilan to'liq ifodalab bo'lmasligini anglagan tarjimon ularni transliteratsiya orqali saqlagan, biroq "teran Də nimalardan iborat", "Samoviy Daoning hukm-qonuni" kabi birikma iboralar vositasida o'zbek kitobxoniga mazmuniy jihatdan ancha yaqinlashtirgan. Bunday yondashuv chet el adabiyoti tarjimalarida egzotizm va assimilyatsiya o'rtasidagi muvozanatni saqlashning maqbul namunasi sifatida baholanishi mumkin. Subhoniyning o'zi: "Bizning shoshqaloq zamonamizda Lao Sziga qaytib, unga ham bir qiyo boqib qo'ysak, do'ppini yerga qo'yib, bir qur tin olsak, picha mushohada ummoniga g'arq bo'lsak, foydadan xoli bo'lmasdi"³⁸ — deb yozadi. Bu mulohaza tarjimonning falsafiy matn oldidagi mas'uliyatini va uning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini chuqur anglaganligini ko'rsatadi. Zero, Subhoniyning tarjimonlik faoliyatini boshqa tarjimonlardan farqlantiruvchi asosiy belgi ham aynan shu — u tarjimani faqat filologik vazifa sifatida emas, balki kitobxon qalbiga ma'naviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati sifatida idrok etgan. Shu nuqtai nazardan, "Dao De Szin" tarjimasi Subhoniyning umrboqiylik, ruhiy sokinlik va insonning koinotdagi o'rni kabi lirik-falsafiy motivlari bilan chambarchas qorishib ketadi va uning she'riy ijodi bilan tarjimonlik faoliyati orasidagi yagona ma'naviy oqimni yana bir bor tasdiqlaydi. "Bu rub'i maskunda go'zallikni hamma go'zallik deb e'tirof qilgan chog'da — xunuklik paydo bo'ladi. Hamma ezgulikni — ezgulik deb bilgan chog'da yovuzlik tug'iladi. Shuning uchun ham mavjudlik va yo'qlik bir-birining doyasi hisoblanadi; qiyinchilik — yengillikni keltirib chiqaradi; uzunlik va qisqalik o'zaro vobasta; balandlik va pastlik bir-birini taqozo qiladi; tovushlar quyilib uyg'unlik kasb etadi, oldingilari va keyingilari izma-iz yuradi."³⁹ Ushbu falsafiy parchada Subhoniyning tarjimonlik mahorati eng yorqin tarzda namoyon bo'ladigan jihatlardan biri bu ziddiyatli tushunchalar juftligini o'zbek tiliga o'girish usuli alohida e'tiborni tortadi. Lao Szining ikkinchi bobida bayon etilgan dialektik qarashlar — go'zallik va xunuklik, ezgulik va yovuzlik, mavjudlik va yo'qlik,

³⁸ Lao Szi. Donishnoma: Dao de szin / Rus tilidan Isroil Subhoniyning tarjimasi. — Buxoro: Durdon, 2021. — B. 4.

³⁹ Lao Szi. Donishnoma: Dao de szin / Rus tilidan Isroil Subhoniyning tarjimasi. — Buxoro: Durdon, 2021. — B. 5.

qiyinchilik va yengillik, uzunlik va qisqalik, balandlik va pastlik kabi qarama-qarshi tushunchalar tizimi — aslida xitoy falsafiy tafakkurining yin-yan tamoyiliga asoslangan olam tasvirining lisoniy ifodasi hisoblanadi. Subhoniylar bu parcha tarjimasida mazkur ikkilik munosabatlarni o'zbek tiliga ko'chirishda aniq semantik juftliklarni saqlagan holda, ularning o'rtasidagi mantiqiy-falsafiy bog'liqlikni ham yo'qotmagan. Xususan, "mavjudlik va yo'qlikni bir-birining doyasi"⁴⁰ iborasi diqqatga sazovordir. "Doya" so'zining qo'llanilishi — bu tarjimonning faqat mantiqiy muqobilni emas, balki obrazli va hissiy muqobilni izlaganligi nishonasi. Rus tilidagi manba matnida bu tushuncha ko'proq abstrakt-falsafiy shaklda berilgan bo'lsa, Subhoniylar "doya" so'zi orqali unga ona-bola munosabatini, ya'ni bir narsa ikkinchisini tug'ib, boqib, mavjud qilib turishini anglatadigan jonli, milliy koloritga ega obraz bag'ishlagan. Bunday leksik tanlov tarjimonning o'zbek poetik an'anasiga bo'lgan sadoqatini aks ettiradi. Parchaning sintaktik qurilishiga nazar tashlaganda ham Subhoniylarning tarjimonlik mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Bir-birini ketma-ket kuzatib boruvchi ziddiyatli juftliklar tizimi — "qiyinchilik yengillikni keltirib chiqaradi, uzunlik va qisqalik o'zaro vobasta, balandlik va pastlik bir-birini taqozo qiladi"⁴¹ — o'zbek tilidagi matnda ham asl xitoy matnining zanjirsimon ritmini saqlab qolgan. Bu ritm she'riy nasrga xos bo'lgan tovush va ma'no uyg'unligini vujudga keltiradi. "Tovushlar quyilib uyg'unlik kasb etadi, oldingilari va keyingilari izma-iz yuradi"⁴² iborasi esa o'sha ritmning o'zi haqidagi metaforik xulosaga o'xshab ketadi. Ya'ni parchaning mazmuni va shakli bir-birini izohlaydigan darajada uyg'unlashgan.

Subhoniylar bu tarjimada o'zbek mumtoz she'riyatida keng qo'llanadigan tazod san'atidan — zid ma'noli tushunchalarning badiiy qarama-qarshi qo'yilishi usulidan mohirona foydalangan. Shu jihatdan mazkur parcha tarjima sifatida emas, balki mustaqil badiiy matn sifatida ham o'qilishi mumkin. Zero, ijodiy tarjimaning eng oliy mezonini ham aynan shu. Tarjima asl nusxaga ehtiyojsiz ham o'z-o'zicha yaxlit estetik hodisa sifatida idrok etilganda, tarjimon o'z vazifasini to'liq ado etgan hisoblanadi.

Subhoniylarning tarjimonlik faoliyatida fors-tojik tasavvuf adabiyotiga murojaat alohida o'rin tutadi. Xoja Orif ar-Revgariyning "Orifnoma" asari — Xojagon-Naqshbandiya tariqatining ilk davriga mansub, IX asrda yashagan shayx tomonidan arab va fors-tojik tillari qorishmasi tarzida bitilgan noyob irfoniy yodgorlik bo'lib, uning o'zbek tiliga o'girilishi o'zbek tasavvufshunosligi uchun katta ahamiyat kasb etdi. Subhoniylar bu tarjimini ustoz shoir Sadriddin Salim Buxoriylar bilan hamkorlikda amalga oshirganligi asarning ikki ijodkor sa'y-harakati mahsuli ekanligini ko'rsatadi. Biroq muqaddimada Subhoniylar o'z nomidan yozib, tarjimaning ikkinchi nashri munosabati bilan hamkoriga alohida ehtirom izhor etgani, bu ijodiy sheriklikda uning yetakchi ovoz bo'lganini ham ta'kidlaydi. Mazkur tarjimaning o'ziga xos murakkabligi shunda ediki, "Orifnoma" matni

⁴⁰ O'sha asar. — B. 5.

⁴¹ O'sha asar. — B. 5.

⁴² O'sha asar. — B. 5.



bir jinsli til qatlamiga ega emas edi. Arab iboralari, fors-tojik she'riy nasri va tasavvuf istilohlarining qorishmasi butun asarni o'g'irishda tarjimonga bir vaqtning o'zida uch tilni va ularning diniy-falsafiy kontekstini chuqur bilishni talab etardi. Subhoniyy bu muammoni o'ziga xos metodologik yondashuv bilan hal etdi. U arab ibora va hadislarini asl shaklida saqlab, ularning ma'nosini qavslar ichida o'zbek tilida izohlab berdi. Masalan, "Al-vaqtu sayfun qoti'un!"⁴³ iborasidan so'ng darhol " — vaqt shamshir kabi tezdin!" tarzida berilgan izoh tarjimonning o'quvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish uslubidir. Bu yondashuv matnni ham diniy ta'limot, ham bir vaqtning o'zida badiiy-falsafiy asar sifatida idrok etish imkonini beradi.

Tarjimadagi leksik qatlama e'tibor qaratilganda, Subhoniyyning arabcha-forscha tasavvuf terminologiyasini o'zbek tiliga o'g'irishda ikki yo'l tutgani ko'zga tashlanadi. Bir tomondan, "solik", "zokir", "taqvo", "riyozat" kabi keng tarqalgan timsollar saqlanib, ular o'zbek she'riy an'anasiga singib ketganligi sababli o'quvchiga begona tuyulmaydi. Ikkinchi tomondan, "roh'ravish", "mag'muzalayn", "tavajjuh" kabi kam uchraydigan iboralar qavs ichidagi tarjima bilan birga berilgan. Bu ikki usulning uyg'unligi tarjima matniga bir vaqtning o'zida ilmiy aniqlik va badiiy ravonlik baxsh etgan. "Solik" atamasi matnda "Ayuhul tolibullo va solikulloh! (Ey, Allohning tolibi va haq yo'lidagi solik!)"⁴⁴ shaklida qo'llangan. Bu o'rinda diqqatga sazovor jihat shundaki, Subhoniyy "solik" so'zini tarjima qilmay, asl arabcha shaklini saqlagan, biroq uning ma'nosini qavslar ichida "haq yo'lidagi" iborasi bilan izohlab o'tgan. Tasavvuf terminologiyasida "solik" — ma'naviy suluk yo'liga kirgan, Haq sari ongli qadam tashlab borayotgan shaxsni anglatadi. Tarjimon bu so'zni o'zbek tiliga "yo'lovchi" yoki "tariqat ahli" tarzida o'g'irishi mumkin edi, biroq u bunday qilmadi. Chunki "solik" so'zi o'zbek mumtoz she'riyatida Navoiy zamonlaridan beri qo'llanib, o'zbek kitobxonini ongiga singib ketgan — uni boshqa so'z bilan almashtirish matnning irfoniyy qatlami o'tkirligiga putur yetkazgan bo'lardi.

Roh'ravish so'zi esa matnda "Barcha roh'ravishda oxirgi maqsadga erishmoq ixlosli bandalar uchun faqat shu tarzda amalga oshgay"⁴⁵ jumlasida uchraydi. Bu o'rinda Subhoniyy forscha "roh'ravish" so'zini saqlab, uning yoniga darhol qavslar ichida "(yo'l)" deb izoh bergan. Forscha "roh" — yo'l, "ravish" — yurish, harakat ma'nolarini anglatadi, birgalikda esa "yo'l yurish", ya'ni ma'naviy sulukdagi harakatni ifodalaydi. Tarjimon bu so'zni oddiy "yo'l" so'zi bilan berib qo'ya qolmay, asl forscha shaklini ham saqlagani bejiz emas. "Roh'ravish" so'zi faqat geografik yo'lni emas, ma'naviy masofa va harakatni ham o'z ichiga oladi. Bu ikki ma'noning birgalikda yashovchi qatlami oddiy o'zbek "yo'l" so'zida saqlanishi qiyin edi.

⁴³ Xo'ja Orif ar-Revvariyy. Orifnoma / Fors-tojik tilidan S.S. Buxoriy va I. Subhoniyy tarjimasi. — Buxoro: Durdona, 2013. — B. 24.

⁴⁴ Xo'ja Orif ar-Revvariyy. Orifnoma / Fors-tojik tilidan S.S. Buxoriy va I. Subhoniyy tarjimasi. — Buxoro: Durdona, 2013. — B. 24.

⁴⁵ O'sha asar. — B. 24.



“Tavajjuh” atamasi matnning yakuniy qismida “Va hamisha tavajjuh va iqboling muqaddas ilohiy dargohga qaratilgan bo’lsin”⁴⁶ shaklida kelgan. Subhoniyy bu o’rinda ham o’sha ikki qatlamli usulga murojaat etgan. Arabcha “tavajjuh” so’zini saqlab, qavs ichida “(diqqat)” deb ma’nosini ochgan. Biroq “tavajjuh” tasavvufda oddiy “diqqat” tushunchasidan kengroq — u butun qalb, ruh va irodaning yagona nuqtaga — Ilohiy dargohga yo’naltirilishini anglatadi. Shu ma’noda Subhoniyyning qavsda “diqqat” deb berishi matnni umumiy kitobxon uchun tushunarli qilgan bo’lsa-da, chuqur irfoniy mazmuni his qila oladigan o’quvchi uchun asl arabcha atama ham saqlab qolindi.

Mana shu uch misolning umumiy tahlilidan shunday xulosa kelib chiqadiki, Subhoniyy tasavvuf terminlarini o’girishda na to’liq assimilyatsiya, ya’ni hammasini o’zbek so’zlari bilan almashtirish, na to’liq egzotizm — izohsiz qoldirish yo’lini tutgan. U bu ikki chegaraning o’rtasida ongli ravishda muvozanat saqlagan. Asl atamani saqlab ma’naviy qatlamni yo’qotmagan, qavs ichidagi izoh orqali esa o’quvchi bilan muloqot ko’prigi qurgan. Bu tarjimonlik metodologiyasi Subhoniyyning tasavvuf ilmidan ham, o’zbek tilining badiiy imkoniyatlaridan ham bir xilda chuqur xabardor ekanligini isbotlaydi. Asarda Subhoniyy 1993 yildagi voqeani — Zulfiqor Ahmad Naqshbandiyyning Buxoroga tashrifi va qo’lyozmani hadya etishi tarixini hikoya qiladi. Bu tasvirda tarjimonning inson sifatidagi ijtimoiy va ma’naviy pozitsiyasi ham yaqqol namoyon bo’ladi. U o’zini faqat til vositachisi emas, balki ma’naviy meros qo’riqchisi va targ’ibotchisi sifatida his etadi. “Boshimiz ko’kka yetib” iborasi esa uning bu topilmaga nisbatan chinakam ma’naviy hayajonga ega bo’lganini ko’rsatadiki, ayni shu his tarjima jarayonida ham o’z aksini topgan bo’lsa ajab emas. Chunki haqiqiy tarjima hech qachon sovuq kasbiy majburiyatdan emas, balki asarni ichdan his qilgan ijodkorning ichki zaruratidan tug’iladi. Subhoniyyning “Orifnoma” tarjimasida aynan shu ichki zaruratning daxli seziladi va bu tarjimani oddiy filologik ishdan ajratib, uni mustaqil ma’naviy-ijodiy hodisa darajasiga ko’taradi.

Isroil Subhoniyyning tarjimonlik faoliyatida ingliz tadqiqotchilari Piter Jeyms va Nik Torpning “**Qadimgi dunyo sirlari**” (Ancient Mysteries) asarini rus tilidan o’zbek tiliga o’girish alohida o’rin tutadi. Mazkur tarjima “Durdona” nashriyoti tomonidan 2016 yilda nashr etilgan bo’lib, unda ilmiy-ommabop janrning o’ziga xos talablari bilan o’zbek adabiy tilining ifoda imkoniyatlari uyg’unlashtirilgan. Asarning asl mavzuyi — qadimgi yo’qolgan sivilizatsiyalar, arxeologik va geologik sirlar, yer tarixi bilan bog’liq ilmiy-falsafiy muammolar tarjimon oldiga nihoyatda murakkab vazifalar qo’ygan. Chunki bu janr bir vaqtning o’zida ilmiy atamalar aniqligini, badiiy ifoda ta’sirchanligini va o’quvchi diqqatini ushlab turuvchi publitsistik ohangni talab etadi. Subhoniyy ushbu uch talabni mahorat bilan qo’shib olib boradi.

Tarjimon ilmiy-texnik atamalarni o’zbekchalashtirish borasida izchil va asosli yondashuv namoyish etadi. Masalan, “радиоуглеводородик таҳлил”, “ирсий муҳандислик” kabi iboralar asl tushunchaning mohiyatini saqlab, o’quvchiga qulay

⁴⁶ Xo’ja Orif ar-Revgariy. Orifnoma / Fors-tojik tilidan S.S. Buxoriy va I. Subhoniyy tarjimasida. – Buxoro: Durdona, 2013. – B. 36.

shaklda yetkazilgan. Qavs ichidagi izohlar tarjimonning o'quvchi bilan bevosita muloqot o'rnatish usuli sifatida alohida ko'zga tashlanadi: “(цивилизация)”, “(генная инженерия)” kabi aniqlovchi izohlar matnga shundayligicha kiritilgan. Bu usul o'zbek ilmiy-ommabop nasrida nisbatan yangi bo'lib, uni o'zbek kitobxoniga yaqinlashtirish va mavzudan uzoqlashmaslik maqsadida qo'llangan.

Subhoniyning tarjimonlik uslubini belgilovchi muhim xususiyatlardan biri matn ichiga ustalik bilan joylashtirilgan tarjimon izohlardir. “Тарж.” belgisi bilan belgilangan qo'shimcha ma'lumotlar, asosan, o'zbek kitobxon uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan geografik, madaniy yoki ilmiy atash hollarini izohlaydi. Masalan: “Бу хусусда «Эдгар Кейси Атлантида ҳақида» бобида тўхталиб ўтамиз. (Китобнинг кейинги жилдларида. Тарж.)”⁴⁷ — bu izohdagi ortiqcha ma'lumot o'quvchini yo'naltirish va asar strukturasi tushuntirish vazifasini bajaradi. Bunday tarjimon izohlari matnning ilmiy-ommabop xarakterini kuchaytiradi, shu bilan birga Subhoniyning muallifga nisbatan mas'uliyatli munosabatini ko'rsatib beradi.

Asl matnning rus tilidagi uzun, ko'p bog'liqli jumalari o'zbek tiliga o'girilganda, Subhoniylarni o'zbek sintaksisiga xos bo'lgan nisbatan dinamik, lekin ma'no jihatdan to'liq saqlangan tuzilmalarga aylantiradi. Quyidagi parcha buning yorqin namunasi: “Дейлик, кометанинг иккинчи бўлаги парчаланганда шу қадар катта ҳарорат юзага келдики, унинг портлаш эквиваленти 250 миллион тонна тринитро-толуолга тенг бўлди”⁴⁸ — bu jumla ilmiy ma'lumotni saqlab, o'zbek tiliga xos shartli ergash gap konstruksiyasi orqali ifodalangan bo'lib, matnni o'quvchiga yanada yaqinlashtiradi. Subhoniylar nasriy tarjimalarida ham o'zining shoirona leksikadan foydalanishga erishgan. “Етти иқлимга доврўғи кетган мозий тилсимотларини”⁴⁹ iborasida “етти иқлим”, “мозий”, “тилсимот” kabi klassik sharq adabiyotidan olingan so'zlar ishlatilgan bo'lib, bu asl matnda mavjud bo'lmagan, lekin o'zbek kitobxoniga ta'sirchan bo'lgan obrazli qatlam hosil qiladi. Bunday leksik boyitish Subhoniyning tarjimonlik konsepsiyasida muhim o'rin egallaydi. U tarjimani oddiy matn ko'chirish emas, balki ikki madaniyat o'rtasidagi san'atkorona ko'priq sifatida tasavvur etadi. Asarning umumiy tuzilmasi geologik faktlardan tortib, Atlantida va Lemuriya afsonalariga qadar keng qamrovli mavzu doirasi tarjimondan bir vaqtning o'zida ilmiy atamalar bilan erkin muomala qilish va badiiy ifodalilikni saqlay olish imkoniyatiga ega bo'lishini talab etadi. Subhoniylar bu ikki qutb orasida usta muvozanat saqlaydi: “Заминимизнинг қай бир нуқтаси бўлмасин, унинг тарихи худди аскар ҳаёти каби узоқ муддатлик дилгирлик ва қисқа фурсатда рўй бергувчи офат-жаҳаннамдан иборат”⁵⁰ — bu iborada ilmiy tushunchaning qiyosiy badiiy tasvir orqali ifodalanishi tarjimonning mahoratini ko'rsatib beradi.

⁴⁷ Jeyms P., Torp N. Qadimgi dunyo sirlari. 1-jild / Rus tilidan Isroil Subhoniylar tarjimasi. – Buxoro: Durdona, 2016. – B. 8.

⁴⁸ Jeyms P., Torp N. Qadimgi dunyo sirlari. 1-jild / Rus tilidan Isroil Subhoniylar tarjimasi. – Buxoro: Durdona, 2016. – B. 15.

⁴⁹ O'sha asar. . – B. 41.

⁵⁰ O'sha asar. . – B. 11.



Xulosa qilib aytganda, Isroil Subhoniylar she'riyatida irfoniy g'oyalar va ramziy-ishoraviy timsollar organik birlikda, yuqori badiiy darajada va chuqur mazmunda ifodalangan. Shoir klassik meros va zamonaviy yangilik, an'anaviylik va novatorlik o'rtasida muvozanat topib, o'zbek zamonaviy she'riyatida irfoniy yo'nalishning eng yorqin namunalarini yaratgan .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ruboiylar gulshani (Umar Xayyom, Badriddin Hiloliy, Mirzo Bedil). Fors-tojik tilidan Isroil Subhoniylar tarjimasi. – Buxoro: “Durdona”, 2012. – 30 b.
2. Lao Szi. Donishnoma: Dao de szin / Rus tilidan Isroil Subhoniylar tarjimasi. – Buxoro: Durdona, 2021. – 45 b.
3. Xo'ja Orif ar-Revqariy. Orifnoma / Fors-tojik tilidan S.S. Buxoriy va I. Subhoniylar tarjimasi. – Buxoro: Durdona, 2013. – 34 b.
4. Jeyms P., Torp N. Qadimgi dunyo sirlari. 1-jild / Rus tilidan Isroil Subhoniylar tarjimasi. – Buxoro: Durdona, 2016. – 76 b.

